

Vakilimiz xalqaro festival g'oliblari safida



Avval xabar berganimizdek, joriy yilning 17-20 sentyabr kunlari Nukus shahrida II Xalqaro baxshichilik san'ati festivali o'tkazildi.

Mazkur festival doirasida Nukus shahrining Yosh tomoshabinlar teatrida Baxshi, oqin va jirov ijrochilari ko'rik-tanloving respublika bosqichi o'tkazildi.



Yuqori Chirchiq tumanidan ishtirok etgan yosh vakillarimizdan biri, iste'dodli oqin Talg'atbek O'rinbekov ko'rik-tanlovning respublika bosqichida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.